

IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA “KLASTER” NAZARIYASI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abdikarimova Zilola Baxramovna

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Masharipova Xosiyat Matrasulovna

“Ma'mun universiteti” nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Jahon iqtisodiyotida 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab sodir bo'layotgan integratsiya jarayonlari uning xalqarolashuvi va globallashtiruvining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashtiruvini, bir tomondan, qo'shimcha qiymat yaratishning transmilliy “zanjiri”ni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobatni kuchaytirmoqda. Globallashtiruv asosida logistikani standartlashtirish, tovar va xizmatlar sifatini ta'minlovchi global aloqa tizimi ham rivojlanmoqda.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman va viloyat hududida joylashgan bir tarmoq korxonalarini hamda ular bilan ta'lim, ilmiy, muhandislik, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni yagona texnologik zanjirga muvofiqlashtirishdan iborat. innovatsion faoliyatni tashkil etish, ishlab chiqarish, raqobatbardosh tovarlar yaratishga e'tibor qaratishdir.

“Klaster” so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda “panja”, “bosh”, “bo'g'im”, “guruh”, “yig'ish”, “joylashuv” ma'nolarini bildiradi. Shuningdek, “klaster” namunaviy tadqiqot usuli sifatida taqdim etiladi.

“Klaster” nazariyasining asosini Alfred Marshallning 19-asr oxirida yozgan “Iqtisodiyot asoslari” (1890) asarida alohida hududlardagi ixtisoslashgan tarmoqlarning integratsiyalashuvi haqidagi fikri tashkil etadi. Uning ilmiy xulosalari asosida ixtisoslashgan subyektlarning hududiy integratsiyasi:

- malakali mehnat resurslarining mavjudligi;
- yetkazib beruvchilar va qo'shimcha ishlab chiqarishlarning o'sishi;
- ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida turli kompaniyalarning ixtisoslashuvi mavjudligiga asoslanadi.

Jahon hamjamiyatida “klaster” nazariyasini o'rganish jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda va uni amaliy qo'llash milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.

“Klaster” nazariyasining ko'p tomonlamaligi unga turli nazariy yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi.

1980-yillardan keyin “Klaster nazariyasi”ni ishlab chiqishda 3 ta muhim (Amerika, Britaniya va Skandinaviya va boshqa) ilmiy maktablarning yutuqlarini ko'rishimiz mumkin. Amerikalik olimlar: M.Porter «Raqobat ustunligi nazariyasi», M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensen «Mintaqaviy klasterlar kontseptsiyasi»,

A.Marshall «Sanoat hududlari nazariyasi», P.Bekatin « Italiya sanoat rayonlari nazariyalari », M. Storper "Ideal" mintaqaviy klaster" nazariyalarini yaratdi. Qo'shimcha qiymat va "klaster zanjiri uyg'unligi, mintaqaviy trening tushunchalari" ham ushbu guruhga kiradi. Aynan shu olimlarning nazariyalarida klasterlar - ishlab chiqaruvchilarning raqobatdosh ustunligini oshirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, ular hududdagi ta'lim, ilmiy-texnikaviy, xo'jalik va boshqa xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyati bilan uyg'unlashgan tizim ekanligi ta'kidlangan.

Klasterlar nazariyasi Rossiya olimlari YU.S.Artomonova, B.B.Xurustalev va boshqalar tomonidan ham o'rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yuqoridagi nazariyalarni yaratilishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishini nazarda tutadi.

“Klaster” nazariyasi evolyusiyasidan uning ikki fundamental tavsifini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchisi, klasterga uyg'unlashgan korxonalar va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagi tovarlar bozori bilan bog'liq bo'lishi zarur. Bunday bog'liqlik vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo'shimcha bo'limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish).

Ikkinchisi – klasterlar geografik yaqin joylashgan o'zaro bog'liqlikdagi korxonalar guruhi bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko'proq qo'shimcha qiymatni yaratishiga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishidir.

Klaster nazariyasi ilmiy jarayonga marketing strategiyasi shaklida, davlat, hududlar va mintaqalar korxonalarining bozordagi raqobat muhitida g'olib bo'lishlarini ta'minlovchi g'oya-usuli sifatida kirib keldi.

M.Porter va M.Enraytlar klasterlarning quyidagi umumiy ustuvorligi borligini ochib berdilar:

–korxonalar (firma)lar uchun ta'minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 foizgacha ko'pligi o'z tasdig'ini topgan;

–ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi;

–ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi. Shuning uchun hozirgi iqtisodiyotni inqirozdan saqlash jarayonlarida, ayniqsa iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda innovatsion texnologiyalarasosida biznesni tashkil etishda

“Klaster” nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanadi. “Klaster”lashtirishni korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli ta’siriga qarshi turishdagi milliy va mintaqaviy rivojlanish talablariga to‘la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb ham qaralmoqda.

Klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanadi:

–boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirib va yangi strategiyalarni ta‘minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;

–o‘zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste‘molchi va mahsulot yetkazib beruvchilarning kanallari bo‘yicha tez tarqaladi;

–klaster ichidagi o‘zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi;

Klasterlar “Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar” shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi. “Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovasiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Klaster siyosati – klasterlarni rivojlantirishni rag‘batlantirish orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir. Klaster siyosatini amalga oshirishda davlatning ro‘liga qarab 4 turi ajratiladi:

1. Katalitik – dalatning loyihalarni chegaralangan shaklda moliyalashtirish orqali o‘zaro manfaatdor tomonlarni, masalan xususiy kompaniyalar hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini birgalikda harakat qilishlarida “katalizator” sifatida namoyon bo‘lishi.

2. Qo‘llab-quvvatlovchi – davlat hokimiyati organlari katalitik klaster siyosatiga qo‘shimcha ravishda hududiy infratuzilmaga sezilarli investitsiyalar kiritish, oliy, o‘rta-maxsus va ta‘limdan keyingi ta‘lim bosqichlarini takomillashtirish, hamda klasterlarni rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid kompleks chora-tadbirlar kabi ishlarni amalga oshiradi.

3. Direktiv (ko‘rsatmali) – qo‘llab-quvvatlovchi klaster siyosatining kengayishi hisobiga davlat tomonidan maxsus dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi orqali hududlarning ixtisoslashuvini o‘zgartirishga qaratilgan klasterlarni rivojlantirish.

4. Interventsion – davlat direktiv klaster siyosatini olib borishi bilan birga klasterlarning rivojlanish istiqbollari oid javobgarlik va qaror qabul qilishni xususiy sektorning ixtisoslashuvini transfert, subsidiya, qonuniy to‘siqlarni qo‘yish, klasterni tashkil qiluvchi korxonalar ustidan nazoratni amalga oshirish orqali o‘z zimmasiga oladi.

Klaster siyosatining kelib chiqishi bo'yicha ular "balanddan-pastga" va "pastdan-balandga" turlari ajratiladi. Klaster siyosatini amalga oshirish tashabbusi bilan milliy yoki hududdiy hokimiyat organlari chiqsa, uning "balanddan-pastga" turiga mos keladi. Klaster siyosatining ayni turiga Finlyandiya, Gollandiya va Daniya yaqqol misol bo'ladi. Klaster siyosatini amalga oshirishda o'z-o'zini boshqarish organlari, tadbirkorlarning mahalliy uyushmalari yoki mahalliy boshqaruv organlari tashabbus bilan chiqsa, klaster siyosatining "pastdan-balandga" turiga mos keladi. Shunga o'xshash dasturlar "klaster tashabbusi" deb nomlanadi.

Tarmoq xususiyatiga ko'ra klasterlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Diskret (alohida ajratilgan) klasterlar alohida komponentlardan iborat avtomobilsozlik, aviatsiya sanoati, kemasozlik, qurilishga oid tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulot va bog'liq xizmatlarni qamrab oladi. Odatda, ushbu klasterlar yig'uvchi tashkilotlar atrofida butlovchi mahsulotlarni yetkazib beruvchi kichik va o'rta hajmdagi korxonalarining rivojlanishi natijasidir.

2. Jarayonli klasterlar kimyo, sellyuloza, metallurgiya, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat kabi jarayonli sanoatlar asosida shakllanadi.

3. Innovatsion klasterlar oliy ta'lim muassasalari va tadqiqot institutlari faoliyati mahsuli bo'lgan tadqiqotlar natijalari hamda yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonida shakllanadigan yangi kompaniyalarni o'zida mujassamlashtiradi.

4. Turistik klasterlar sayohat qilish va hordiq chiqarish bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirishda qatnashadigan turli tarmoq korxonalarini qamrab oladi. Turistik klaster – hudud raqobatbardoshligini oshirish maqsadida sayohat va turizmga oid ehtiyojlarni qondirish jarayonida ma'lum hududning turistik mahsulotini shakllantiradi. Turizmda klasterlarning o'ziga xos shakllari tematik turistik klasterlar sanalib, ularning sport, sarguzasht yoki madaniy-ma'rifiy turlari mavjud. Ular turistik bozorning ma'lum segmentini qamrab oladi. Tematik klasterlar qo'shilgan qiymat zanjirlarining aniq ketma-ketlikda amal qilishi hamda qo'shilgan qiymat tizimlari evaziga turistlarning ehtiyojlarini optimal darajada qondirishga erishadilar. Turistik klasterlarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- hududlarda mavjud diqqatga sazovor joylar hamda shakllangan turistik infratuzilma (klaster ob'ekti) kabi turistik resurslardan turistik klaster sub'ektlarining birgalikda foydalanishi;

- turistik klaster qatnashchilari orasida vertikal (turizm sanoati xizmatlarining ichki zanjirlari) hamda gorizontal (turistik mahsulotni ishlab chiqarishda qatnashadigan tuzilmalararo) aloqadorlikning mavjudligi;

Xullas, turistik klasterlar iborasi turizm hududidan keskin farq qilib, institutsional tuzilmaga ega boshqariladigan makon sifatida namoyon bo'ladi hamda o'ziga o'xshash boshqa klasterlar bilan raqobatlashadi. Ma'lum turistik potentsialga ega makonlarni, turizm iqtisodiyoti tadqiqotchilari tomonidan xalqaro e'tirof etilgan ma'nolarida, ya'ni unga geoiqtisodiy yondashganda uni turizm hududi, marketing tomonidan qaralganda

destinatsiya va menejment tomonidan yondashilganda turistik klaster kabi iboralarni qo'llash maqsadga muvofiq.

5. Transport-logistika klasterlari yo'lovchilarni tashish, yuklarni omborxonalarda saqlash va yetkazib berishga ixtisoslashgan infratuzilma hamda kompaniyalar majmuidan iborat. Shuningdek klasterlarga port infratuzilmasi, dengiz, daryo, yer usti va havo yo'llari orqali tashishga ixtisoslashgan tashkilotlar, logistik komplekslar va boshqalarni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risidagi qonuni. –T.: 2018 yil. 9 iyul, O'RQ-483-son. <https://lex.uz/docs/-3815461>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 834-sonli Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida qarori 16.10.2017 yil

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. // www.lex.uz

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5285-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. // www.lex.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 834-sonli Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida qarori 16.10.2017 yil

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. // www.lex.uz

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5285-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. // www.lex.uz

8. Z. Abdikarimova. The American Journal of Management and Economics Innovations. "SIGNIFICANCE OF CLUSTER IN INCREASING COMPETITIVENESS IN THE REGION" Volume05 Issue03 March 2023

9. Abdikarimova Zilola Bakhromovna International Journal Of Management And Economics Fundamental. "PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CLUSTER MANAGEMENT ACTIVITIES IN INCREASING COMPETITIVENESS" in Volume 03 Issue05 may2023

10. Z.Abdikarimova S.Madaminov COMPETITIVENESS FACTORS IN THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN. "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022" Part 9 Issue 1 May 2022

11. <http://info-invest.uz>
12. <http://mmf.uz>
13. <https://tfqm.uz/oz/forum/index.php?page=post&id=6>